XALQ DEPUTATLARI KASBI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 27 - may VI-37-60-4-61-K/22 Kasbi tuman hokimligi

Tuman geografik obyektlari nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2011yil 41-son, 448-modda) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022 yil 02 fevraldagi 15/260-sonli xulosasi va tuman hokimligining geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI :

1.Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022 yil 02 fevraldagi 15/260-sonli xulosasi va tuman hokimligining geografik obyektga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflari maqullansin.

2.Tumanda nomi o‘zgartiriladigan obyektning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman Davlat kadastr palatasi bo‘limi (SH.Mahmudov), IIB bo‘limi (F.Asadov), tuman statistika bo‘limi (G‘.Dovurov) va tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Q.Sariqov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda geografik obyektlarning nomlari o‘zgartirilishi munosabati bilan hujjatlar rasmiylashtirilishini ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

4.Mazkur qaror “Sadoqat” gazetasida e’lon qilinsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Jo‘rayev va o‘rinbosari B.Eshonqulovlar zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **T.A.Meyliyev**

Xalq deputatlari Kasbi tuman
Kengashining
2022 yil 27 maydagi
VI-37-60-4-61-K/22-son qaroriga
1-ilova

Kasbi tumanida nomlari o‘zgartiriladigan va qaytadan nomlanadigan geografik obyektlar ro‘yxati.

t/r	Geografik obyektlarning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektlarning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Mahalla	Kasbi tumani Maymanoq qishlog‘i	Nomsiz mahalla	Yangi Maymanoq	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq